

Termiz shahridan bir guruh turli soha vakillari "O'zbekiston Konstitutsiyasining 30 yilligi" esdalik nishonlari bilan taqdirlanishdi.




Termiz shahridan bir guruh turli soha vakillari "O'zbekiston Konstitutsiyasining 30 yilligi" esdalik nishonlari bilan taqdirlanishdi

Joriy yilning 8 dekabr sanasida tinch va farovon hayotimizning muhim kafolati hamda mustahkam huquqiy poydevori bo'lgan Bosh qomusimiz - O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligiga o'ttiz yil to'ladi.

Ushbu sana munosabati bilan bugun, Termiz shahar hokimligi yig'ilishlar zalida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 8 noyabrdagi farmoniga binoan ta'sis etilgan «O'zbekiston Konstitutsiyasining 30 yilligi» esdalik nishoni bilan bir guruh turli sohalarda faoliyat olib borayotgan hamshaharlarimiz taqdirlandilar.

Mamlakat mustaqilligini mustahkamlash, uning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, ilmiy salohiyatini yuksaltirish, inson huquqlari va erkinliklari, qadr-qimmatini ulug'lanadigan adolatli fuqarolik jamiyatini barpo etish borasida munosib hissa qo'shib kelayotgan barcha osha vakillari va mehnat faxriylariga ecdalik nishoni viloyat hokimi o'rinbosari Zilxumor Xidirova va Termiz shahar hokimi O'ktam To'raevlar tomonidan topshirildi.







Image not found or type unknown






Image not found or type unknown

